

**“МАHMUDХО‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID  
MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**S.UMIROV BEHBUDIYSHUNOS OLIM S. QOSIMOV IJODI HAQIDA**

Fayzullayeva Zulfiya  
*O‘zJOKU o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jurnalist, publitsist S.Umirovning Behbudiylar ilmiy merosini jiddiy o‘rgangan yirik adabiyotshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Behbudiyning hayoti, ijodi va faoliyatini chuqur o‘rgangan va uning asarlarini ilmiy aylanmaga kiritishda jonbozlik ko‘rsatgan S.Qosimov haqidagi fikr-mulohazalari o‘rin olgan. Spuningdek, Behbudiyning asarlarini o‘rganish nima uchun bugungi kunda ham dolzarb ekanligi haqidagi mulohazalarini bildirgan.

**Kalit so‘zlar:** *jadidchilik, ma’rifatparvarlik, matbuot, qatag‘on, ma’naviyat.*

**Аннотация:** В данной статье автор приводит мнения журналиста, публициста С.Умирова о С.Косимове, крупном литературоведе, Заслуженном деятеле науки Узбекистана, глубоко изучившим жизнь, творческую деятельность и научное наследие Махмудходжса Бехбуди. Автор статьи также высказывает свои размышления о том, почему изучение работ Бехбуди актуально и сегодня.

**Ключевые слова:** *джадидизм, просвещение, пресса, репрессии, духовность.*

**Abstract:** The author of this article presents the views of journalist, publicist S. Umirov about S.Kosimov, major literary scholar, Honoured Scientist of Uzbekistan, who has deeply studied the life, creative activity and scientific heritage of Makhmudkhodzha Bekhbudi. The author of the article also expresses her thoughts on why the study of Bekhbudi’s works is relevant today as well.

**Key words:** *jadidism, enlightenment, press, repression, spirituality.*

Moziyga qarab ish ko‘rmoq xayrlidir... Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim sohasini isloq qilish, uni zamonaviy talablarga mos tarzda rivojlantirish bugungi kunnig dolzarb masalalaridandir. Ayniqsa, bu borada ta’lim sohasida keskin burilishlar yasashga intilgan jadidchilik harakati namoyandalari faoliyatini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu masalaga hukumat darajasida e’tibor qaratilayotgani, turli xalqaro konferensiyalar o‘tkazilayotgani, shu nomli gazeta chop etila boshlagani, jadidchilik harakati namoyandalarining asarlariga qayta-qayta chop etilayotgani, maktab darsliklariga jadidlar haqidagi ma’lumotlar kiritilgani olib borilayotgan say-harakatlarga misolbo’la oladi.

Jadidlar faoliyati adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan ayca ishchil o‘rganilgan va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Bu haqda qator ilmiy, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Jadidlar haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar orasida Solih Qosimov, Sherali Turdiyev, Begali Qosimov, Naim Karimov, Hamidulla Boltaboev, Sirojiddin Ahmad, Bahodir Karimov, Boybo‘ta Do‘stqorayev, Halim Sayid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorova, Sayyora Halimova, Nilufar Namozova va boshqalarning xizmatlari katta.

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Biz mazkur maqolamiz orqali jadidlar faoliyatini o’rgangan olimlardan biri Solih Qosimovning Mahmudho’ja Behbudiy merosini qanday o’rganganligi xususida adabiyotshunos va publitsist Saydi Umirovning ilmiy izlanishlarini tahlil qilishni lozim topdik.

Qayd etish lozimki, Saydi Umirovning adabiyotshunos S.Qosimov bilan munosabatlari juda yaqin bo‘lgan. O’zaro uchrashuvlarda, muloqotlarda mavzu, tabiiyki, S.Qosimovning ilmiy faoliyati yo’nalishi hisoblanmish jadidlar masalasini ham chetlab o‘tmagan. S.Umirov “Sehrli va mehrli so‘z” kitobi muqovasida yozganidek, “...qalamga olgan insonlarning aksariyatini ko‘rganman, bilganman, muloqot qilganman, shaxsiyatidan xabardorman”<sup>1</sup>.

S.Umirov o‘zining “Dorilfununlar taqdirimda” nomli kitobiga Behbudiyning ilmiy merosini jiddiy o’rgangan yirik adabiyotshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, ustozи S.Qosimov haqida yozgan “Solih Qosimov – behbudiyshunos” sarlavhali maqolasini ham kiritgan. Ushbu maqolada S.Umirov, , shunday yozadi: “XIX asr oxiri, XX asr boshlarida, 20–30-yillarda chiqqan gazeta, jurnallar taxamlari, Toshkent, Samarqand, Moskva, Sankt Peterburg va boshqa shaharlardagi arxiv materiallari, eski va noyob nashrlar ichida Solih Qosimov nigohi tushmagan, o‘rganmagan, ko‘chirmalar olmagani juda kam edi”<sup>2</sup>. Ushbu maqolada S.Qosimov “o‘ta qiziquvchanligi” va siyosiy mazmunga ega maqolalar yozgani uchun “qora ro‘yxatga” tushgani, qatag‘on qilinishiga bir baxya qolgani, shu bois ehtiyyotkorlik bilan ish tutgani, o’rgangan, tadqiq etgan materiallari bir emas, ikki yoki uch doktorlik dissertatsiyasiga yetgulik bo‘lsa-da, katta ishini nihoyasiga yetkaza olmay, Mustaqillikka ikki yil qolganida, 1989-yilda 69 yoshida vafot etganini S.Umirov afsus va nadomat bilan eslaydi<sup>3</sup>.

Ushbu maqolada S.Umirov S.Qosimov haqida “Bilimdon olim”, “O‘rganish zahmati” nomli maqolalar yozganini aytib ketadiki, bu maqolalarda ham, tabiiyki, gap asosan olimning jadid ma’rifatparvarlari merosini o‘rganish borasidagi sa’y-harakatlari haqida boradi.

“Solih Qosimovning Behbudiy hayoti, faoliyati, ijodini o‘rganish borasidagi uzoq yillik izlanishlari, topgan, to‘plagan materiallari, e’lon qilib ulgurgan tadqiqotlari tahsinga loyiq. Shular ichida Qomusimizning ilk nashri uchun yozilgan “Behbudiy”, “O‘zAS”da chop etilgan “Behbudiy va jadidchilik” (1990-yil 19-yanvar) nomli maqoalalari alohida ahamiyatga ega”, deb yozadi S.Umirov<sup>4</sup>. Shuni ta’kidlash lozimki,

<sup>1</sup> S.Umirov. “Sehrli va mehrli so‘z”. – Toshkent, “BODOMZOR INVEST”, 2017. Muqovaning orqa qismi.

<sup>2</sup> S.Umirov. “Dorilfununlar taqdirimda”. – Toshkent, “Sharq” NMAK, 2008. – 96-b.

<sup>3</sup> O‘sha kitob. – 98-b.

<sup>4</sup> O‘sha kitob. – 99-b.

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“O‘zAS”da bir sahifada bosilgan ushbu maqolani tayyorlashda S.Qosimovning qizi Nargiz Tolipova tahririyat xodimlariga yaqindan yordam bergan<sup>5</sup>.

S.Qosimov Behbudiyning ilmiy merosini o‘rganishga qanday kirishgani haqida quyidagicha yozadi: “30-yillar ikkinchi yarmida Behbudiy nomiga balchiq chaplangani, yarim asr mobaynida bu zot yovuzlik timsoli sifatida talqin etilgani, darslik va xrestomatiyalardan nomi olib tashlanganligi, KPSS XX syezdidan keyin ham u haqda iliqroq gap aytildi, turg‘unlik yillarda yana unutilayozgani sinchkov olimni tashvishga va shubhaga soladi va “siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o‘scha vaqtdagi jadidlaridan unga teng kela oladigan kishi bo‘lmasa kerak”, (Fayzulla Xo‘jayev) deya yuksak bahoga sazovor bo‘lgan ma’rifatparvar inson haqida olim yangi ma’lumot, materiallar izlashga chinakamiga kirishib ketadi va bu izlanish uzoq vaqt, umrining oxirigacha davom etadi”<sup>6</sup>. Ko‘rinib turibdiki, S.Qosimov Behbudiy nomini oqlash, uning ilmiy merosini to‘plash va o‘rganish, ilmiy muomalaga kiritish, ommalashtirish ishiga umrining eng sermahsul yillarini baxsh etgan yirik adabiyotshunos olim bo‘lgan.

S.Qosimovning Behbudiy nomini keng yoyishga qo‘sghan hissasini S.Umirov maqolasida quyidagicha bayon etadi: “To‘plagan materiallari, tayyorlagan monografiyasidan bir qismi – xamir uchidan patir sifatida “O‘zAS”da bosilgan “Behbudiy va jadidchilik” maqolasida S.Qosimov Behbudiy hayoti, faoliyati, ijodi haqida yangi ma’lumotlar keltiradi, bir qator maqolalarini taqdim etadi, Parvina aya bilan suhbatlari, matbuot materiallari asosida olim o‘z faoliyatini qozi va muftiylargacha mirzalikdan boshlagan yosh Mahmudxo‘ja tirishqoqligi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi tufayli muftiylik maqomiga erishgani, umrining oxirigacha Jomboyda muftiylik qilgani, har hafta Jomboyga borib, sud jarayonida yuzaga chiqqan munozaralarni qozilar bilan birga hal qilgani, adolatparvar bo‘lgani, diniy va dunyoviy bilimlarni chuqr egallagan barkamol shaxs sifatida katta hurmat-e’tibor qozongani haqida yozadi”<sup>7</sup>.

S.Umirov Solih Qosimovning yirik olim, oddiy, kamtar, kamsuqum inson sifatidagi fazilatlarini quyidagicha keltirib o‘tgan: “”S.Qosimov to‘plagan, tartib bergan papkalarda arxiv va noyob qo‘lyozmalardan ko‘chirmalar, turli kishilar, mutaxassislar bilan suhbatlari matnlari, o‘zining sharhlari, fikr-mulohazalari va boshqa narsalar o‘rin olganki, ular alohida o‘rganishga loyiq. Solih aka benihoya kamtar, samimiyl, suhbat shirin, bag‘rikeng odam edilar. So‘ragan odamdan maslahatini, yordamini ayamas, qizg‘anish, hasad, kek izzattalablik qusurlaridan xoli edilar”<sup>8</sup>.

<sup>5</sup> O‘sha kitob. – 98-b.

<sup>6</sup> O‘sha kitob. – 99–100-betlar.

<sup>7</sup> O‘sha kitob. – 101-b.

<sup>8</sup> O‘sha kitob. – 102–103-betlar.

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Kezi kelganda, Solih Qosimovning o‘zi ham boshqa olimlar haqida ijobjiy fikr-mulohazalar bildirganligini e’tirof etish joiz. Masalan, adabiyotshunos, jurnalist, mudarris va murabbiy, Behbudiy hayoti va ijodini chuqur o‘rgangan olim Boybo‘ta Do‘s tqorayev haqida quyidagi iliq fikrlarni aytgani S.Umirovning “Zukko” deb nomlangan maqolasida quyidagicha ifodalangan: “XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti, matbuotining boshqa bir bilimdoni Solih Qosimov Boybo‘ta Do‘s tqorayevning “O‘zbek adabiy-badiiy tanqidchiligi tarixidan” nomli nomzodlik risolasiga katta baho bergani, “keltirgan adabiyotlar ro‘yxatiga qarab ham bu yosh olimning qanchalik izlanuvchanligi, hali ko‘pchilik bilmaydigan dalil, ma’lumotlardan xabardor ekanligini bilsa bo‘ladi”, – degani esimda”<sup>9</sup>.

Behbudiy asarlarini ayni shu kunlarda o‘rganish shuning uchun ham muhimki, so‘nggi vaqtarda Rossiya propaganda mashinasini tomonidan O‘zbekistonga, uning milliy o‘ziga xosligi, ko‘hna tarixi, davlatchilik asoslariga tosh otilmoqda, bu ishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanilmoqda. Ma’rifatparvar alloma Behbudiy o‘sha vaqtlardayoq Chor Rossiyasi bosqini vaqtincha kampaniya emas, balki uzoqni ko‘zlagan siyosat, ko‘zimizni ochaylik, aks holda tobelik iskanjasiga tushib qolamiz, deb kuyingan, tashvishga tushganini Solih Qosimov o‘z maqolalarida dadil ko‘rsatib bergen. Saydi Umirovning yozishicha, haqiqiy olim davrning urxo-urlari, tala-to’plariga qaramasdan tarixiy haqiqatni aniqlashda vaziyat qanchalik qaltis bo’lmashin o‘z nuqtai nazari, voqelikka xolis munosabatini ifoda etishdaadolat mezoniga amal qilishga intiladi. Saidi Umirovning adabiyotshunos olim Solih Qosimovni jadidchilik harakati va uning rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati bo‘yicha olib borgan tadqiqoti, ilmiy maqolalarni tahlil qilib, bu siymo haqida yozgan maqolalarini o‘rganish asnosida shunga amin bo’ldikki, Solih Qosimovning aql-zakovati, keng dunyoqarashi, teran mulohazalari va ayniqsa, millat ravnaqi uchun qilgan xizmatlari jadid bobolarnikidan qolishmas ekan. Shu ma’noda taniqli publicist va adabiyotshunos Saydi Umirov nafaqan jadidchilik harakati namoyandalarinig, balki ular faoliyatini o‘rgangan olimlarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tadqiq etish ham zamonaviy ilm uchun dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib bergen.

## **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. S.Umirov. “Dorilfununlar taqdirimda”. – Toshkent, “Sharq” NMAK, 2008.
2. S.Umirov. “Ma’naviyat mulkiga sayohat”. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2013.
3. S.Umirov. “Sehri va mehrli so‘z”. – Toshkent, “BODOMZOR INVEST”, 2017.
4. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 1990-yil 19-yanvar soni.

<sup>9</sup> S.Umirov. “Ma’naviyat mulkiga sayohat”. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2013. – 61–62-betlar.